

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

huzuridagi

TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

Fiqh, iqtisod va tabiiy fanlar fakulteti

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar

kafedrasi

OLIY TA'LIMNING

**5341100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
bakalavr yo`nalishi talabalari uchun rejalashtirilgan**

MAKROIQTISODIYOT

fanidan

KURS ISHI

yo`zish bo`yicha metodik (uslubiy) ko`rsatma

Toshkent - 2010

Ushbu uslubiy ko'rsatma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish Kontsepsiyasi"ning 5. «O'quv adabiyotlarining shakllari va turlari to'g'risida»gi bo'limi 5.2. «O'quv adabiyotlarning turlari» bandining 12 abzatsi shartlariga binoan «Makroiqtisodiyot» fanidan Kurs ishi tayyorlash bo'yicha ishlab chiqilgan bo'lib, u Fiqh, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetining «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» kafedrasidan muhokama qilinib, ma'qullangan va Toshkent islom universiteti o'quv metodik kengashida tasdiqlangan.

Metodik (uslubiy) ko'rsatma muallifi:

A.A.Abdirashidov-«Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» kafedrasidan o'qituvchisi

Uslubiy qo'llanma taqrizchilari:

Z.R.Sodiqov - i.f.n., TIU «Xalqaro iqtisodiy munosabatlar» kafedrasidan

R.Sodiqova – i.f.n., O'zR FA Iqtisodiyot instituti katta ilmiy xodimi

I. KIRISH

«Makroiqtisodiyot» fanidan Kurs ishi talabaning mustaqil ilmiy ijodiy ishi bo'lib, u ixtisoslik sohasiga doir fanlarning nazariy asoslari va mohiyatini chuqur o'zlashtirish, aniq amaliy material va manbalarni tadqiq etish, jarayonlarni tahlil qilish va umumlashtirish ishlari amalga oshirilgandan so'ng bayon etiladi.

«Makroiqtisodiyot» fanidan kurs ishi yozishda bir qator maqsadlar ko'zda tutiladi. Jumladan:

- Talabalarda ixtisoslikka taalluqli dolzarb mavzu va masalalar borasida tasavvur hosil qilish va ularni o'rganishga yo'naltirish;
- talabalarga o'tilgan nazariy bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash;
- talabalarda-jarayonni ilmiy nuqtai-nazardan bayon etish va ularni amaliyotga joriy etish malakasi va tajribasini shakllantirish;
- talabalar oldiga sohaga oid muammolar qo'yish va ularning echimini topish bo'yicha iqtidorini rivojlantirish;
- talabalarda nazariy va amaliy faoliyat bilan bog'liq ilmiy adabiyotlarni va tahliliy materiallarni o'rganish va tasniflash ko'nikmasini hosil qilish;
- talabalarda amaliy ma'lumotlar va statistik materiallar bilan ishlash hamda ulardan ilmiy asosda foydalanishga ko'nikma hosil qilish kabilardir.

«Makroiqtisodiyot» fanidan yozdirilayotgan kurs ishining asosiy vazifasi talabada tanlab olgan mavzusi bo'yicha ilmiy-amaliy muammolarni yoritib berish va ularni echish borasida tafsiyalar ishlab chiqish xususida ilmiy ko'nikma hosil qilish kerak. Shu bois, kurs ishining darajasi talabaning ilmiy nazariy tayyorgarligining muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

II. KURS ISHINI YOZISHGA TAYYORGARLIK

2.1. Kurs ishi mavzusini tanlash

Talaba tomonidan kurs ishini muvaffaqiyatli bajarish ko'p jihatdan mavzuni ijodiy ishlab chiqish va tanlab olishga bog'liq bo'ladi. Talaba o'z ilmiy va amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda kurs ishi mavzusini kafedra tomonidan tuzilgan va tasdiqlangan ro'yxat ichidan mustaqil ravishda tanlab olishi kerak.

2.2. Kurs ishi tuzilishi

Kurs ishining tuzilishi umumiy qoida sifatida o'rganilgan kirish qismdan, asosiy bo'limdan, xulosa, tadqiqot jarayonida foydalanilgan adabiyotlar va statistik to'plamlar hamda qo'shimcha materiallar ro'yxatidan, ilovalardan tashkil topishi

kerak. Kurs ishining barcha qismlari bir biri bilan o`zaro bog`langan va mavzuning ochib berishga xizmat qilishi talab etiladi.

Ayni vaqtda ilmiy izlanishning kontseptsiyasini, uning asosiy g`oyalarini belgilab beruvchi kengaytirilgan kurs ishi rejasini, o`rganiladigan muammolarning doirasini va manbalarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Mavzuga tegishli amaliy ma'lumotlarni to`plash, tartibga keltirish, tasniflash, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida kurs ishining rejasi takomillashtirilishi yoki uning yo`nalishi o`zgartirilishi mumkin.

III. KURS ISHIGA BELGILANGAN ASOSIY TALABLAR

3.1. Kurs ishining mazmunini ochib berishga qaratilgan talablar

Kurs ishining umumiy hajmi mashinkada yoki kompyuterda yozilgan matnda 14 shrifda o`rtacha 32-36 bet atrofida bo`lishi kerak.

Kurs ishi tuzilgan rejasiga muvofiq alohida bandlarga, ya'ni paragraflarga bo`linadi. Bu bandlarning nomi qisqacha bo`lib, mavzuning mazmuniga mos tushishi va matnga muvofiq tarzda bosh harflar bilan yozilishi lozim. Betlar arab raqamlari bilan o`rtada pastki qismda qo`yilishi kerak.

Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagi qismlarni qamrab olishi lozim:

- titul varag`i;
- reja;
- kirish;
- asosiy qism;
- xulosa va takliflar;
- foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati;
- mundarija;
- ilovalar.

Kurs ishi A4 (210x297) formatli oq varaqning bir tomoniga 1,5 interval oraliqda yoziladi va uni yozish jarayonida quyidagi hoshiyalar o`lchamiga rioya qilish lozim:

Chap hoshiya – 30 mm.

O`ng hoshiya - 15 mm.

Pastki hoshiya -20 mm.

Yuqorigi hoshiya - 20 mm.

Kurs ishi teztikkichga tikiladi va titul varog`i uning ustiga elimlanadi. Kurs ishini raqamlash reja yozilgan varog`idan boshlanib oxirgi betgacha hamma varaqlarni qamrab olishi lozim.

Reja yozilgan varoq birinchi bet hisoblanadi va unga raqam qo`yilmaydi. U birinchi ilovada keltirilgan shaklda to`ldiriladi.

Kurs ishidagi barcha grafiklar, chizmalar, rasmlar, diagrammalar va boshqalarning nomi aniq qilib ustiga yozilishi va raqamlab chiqilishi lozim.

Shuningdek, barcha formulalar arab raqamlari bilan raqamlab chiqilishi kerak. Formulalarning raqami uning to'g'risida varaqning o'ng tomonida qavs ichida ko'rsatilishi kerak.

3.2 Kurs ishining alohida bandlariga qo'yiladigan talablar

Rejada kurs ishining barcha bandlari, ya'ni kirish, asosiy qism, paragraflar, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati joylashgan bet raqamlari bilan birgalikda keltiriladi.

Kirish qismining hajmi 3-5 betni tashkil qiladi. Unda tanlab olingan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, izlanishning maqsadi, vazifalari, nazariy va metodologik asoslari yoritib beriladi.

Asosiy qism faqat paragraflar yoki boblar va uning ichida paragraflar shaklida tasniflanishi mumkin. Bu qism Kurs ishining umumiy hajmining taxminan 80-85 foizini tashkil qilishi kerak. Kurs ishining asosiy qismi paragraflarda berilishi va paragraflar soni kamida besh yoki oltita bo'lishi lozim.

Asosiy qismda mavzuning asosiy nazariy va metodik masalalari ko'rib chiqiladi, statistik ma'lumotlar tahlili natijalari ochib beriladi, o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarning rivojlanish yo'nalishlari va qonuniyatlari aniqlanadi, ularga ta'sir qiluvchi omillar aniqlanadi hamda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan tafsiyalar ishlab chiqiladi.

Nazariy masalalarni yoritish jarayonida talaba kurs ishi mavzusi va mazmunini O'zbekistonda bozor munosabatlarini qaror toptirish va milliy iqtisodiyotning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuv jarayonlari bilan bog'lashga harakat qilishi lozim. Huddi shu bo'limlarni yozishda talaba olgan nazariy bilimlarini O'zbekiston Respublikasi oldida turgan amaliy masalalar bilan o'zaro bog'lay olish qobiliyatini ko'rsata olishi lozim. Unda iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o'tkazish sohasida ilg'or tajribalarni umumlashtirish, mavjud kamchiliklarni va ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash muhim o'rin egallaydi.

Kurs ishida o'rganilgan va tahlil qilingan iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan tafsiyalar va takliflar berilishi kerak.

Kurs ishining xulosa va takliflar qismi 3-6 bet atrofida bo'lib, unda talaba ilmiy tadqiqotning xulosa va takliflarini keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida: Kurs ishi yozish davomida foydalanilgan manbalar ro'yxati keltiriladi (2-3 ilovalar).

Ilovalarda: Asosiy matnni o'qishni qiyinlashtiradigan jadvallar, grafiklar, hujjatlar nusxalari, diagrammalar keltiriladi va raqamlanadi.

Kurs ishining asosiy matnida mavzuni ochib berishga qaratilgan va to`g`ri tuzib chiqilgan jadvallar, grafiklar, rasmlar, diagrammalar va boshqa zaruriy materiallar keltirilishi lozim.

3.3. Materiallarni yoritib berishga qo`yilgan talablar

Kurs ishi imlo xatolarsiz, ravon tushinarli tilda yozilishi, jumla va gaplar aniq ifodalanishi, ular o`zaro bog`liq bo`lishi va bir birini to`ldirib turishi kerak. Unda keltirilayotgan statistik ma'lumotlar faqatgina ko`rgazma (illyustratsiya) vazifasini o`tab qolmasdan, xulosalar chiqarish va ularni isboti uchun xizmat qilishi lozim. Kurs ishida keltirilgan barcha asoslar va ma'lumotlarning aniqligi va haqiqiyligi uchun uning muallifi javobgardir.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsan bajarilishi shart. Talaba tomonidan turli xil manbalardan dalillar, statistik ma'lumotlar, turli mualliflarning fikrlaridan ixtiboslar keltirish to`g`ri va ilmiy ma'lumotlari bilan ta'minlangan bo`lishi kerak.

3.4 Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish

Kurs ishida ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish nashr etishga tayyorlanayotgan ilmiy ishlar talablariga javob berishi kerak.

Kurs ishini yozish jarayonida talaba shu sohada mavjud bo`lgan va o`zi foydalangan boshqa ilmiy tadqiqotlardan, ma'lumotnomalardan dalil keltirishi zarur.

Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish davomida talaba quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

- Kurs ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar va boshqa manbalardan dalil keltirish bir xil tartibda yoritilishi kerak;
- matnda foydalanilgan manbalar sahifa ostida izoh tarzida aniq va to`liq keltirilishi, ya'ni muallif va adabiyotning nomi, nashriyoti, yili va beti keltirilishi kerak;
- sahifa ostidagi izoh tarzidagi yozuvda vaqtli nashrlar, kitoblar, maqolalar nomi qo`shtirnoqqa olinmaydi;
- sahifa ostidagi izoh 1,5 interval qilib yozilishi lozim.
- sahifaning atroflariga bezakli chiziqlar qilinishi mumkin.
- kurs ishlari o`quv jarayoni olib borilayotgan tilda yozilishi lozim.
- kurs ishlari yozish jarayonida foydalanilgan adabiyot va ilmiy manbalar soni mavzuni ochib beradigan darajada bo`lishi zarur.
- kurs ishlarining yozishni qulaylashtirish uchun oq varaqlarda kompyuterda bir yarim oraliqli satr chiziqlari chizib olinishi mumkin.

IV. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH

Kurs ishini sifatli bajarishning muhim shartlaridan biri tanlab olingan mavzu bo'yicha mavjud maxsus adabiyotlarni chuqur o'rganish hisoblanadi. Bunda ko'rib chiqilayotgan savollarga tegishli rasmiy ma'lumotlarni, ilmiy asarlarni, darsliklarni, ilmiy maqolalar to'plamlarini, oynamalarda bosilgan maqolalarni, ilmiy anjumanlar materiallarini, statistik ma'lumotnomalarni o'rganib chiqish zarur.

Adabiyotlarni o'rganish jarayonida asosiy e'tiborni birinchi navbatda maqola yoki kitobning kurs ishi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'liq bo'lgan qismlariga, ya'ni boblarga, paragraflarga qaratish kerak. Shu bilan birga kurs ishini yozish jarayonida zarur savollarni tushirib, qoldirmaslik maqsadida har bir o'rganilayotgan adabiyotni boshidan oxirigacha ko'z yugurtirib chiqish lozim.

Adabiyotlarni o'qish va o'rganish jarayonida kurs ishi bilan bog'liq bo'lgan savollardan parcha ko'chirib olish zarur. Har bir parchada uning manbasi va manbadagi sahifasi ko'rsatilishi shart. Adabiyotlar bilan tanishish jarayonida muallif o'z xulosalarini isbotlash uchun foydalangan tahlilning texnik usullarini, ya'ni jadvallar, shakllar, statistik ma'lumotlarni guruhlariga bo'lish va boshqalarni yozib qo'yish zarur, chunki ulardan ba'zi birlaridan kurs ishini yozish davomida foydalanish mumkin.

O'rganilayotgan adabiyotlardan ko'chirib olinayotgan parchalarni alohida qog'ozning faqat bir tomoniga, yozuv uchun hoshiya qoldirgan holda yozish maqsadga muvofiqdir. Adabiyotlar bilan tanishish jarayonida vujudga kelgan g'oyalarni shu holdayoq yozib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Kurs ishini talab darajasida yozish uchun ko'p miqdordagi adabiyotni ko'rib chiqish va o'rganish talab qilinganligi sababli parchalar shaklida to'plangan ma'lumotlarni tartibga solish lozim. Bunday tartibga solish turlaridan biri quyidagicha bo'lishi mumkin. Har bir parcha ma'lum bir raqam bilan belgilab qo'yiladi. Masalan, «1.2» raqami parchadan 1-chi bob yoki bo'limning 2-chi paragrafini yozish davomida foydalaniladi degan ma'noni bildiradi. Shuningdek, yig'ilgan ma'lumotlarni har bir paragraf ichida yoritiladigan savollar bo'yicha ham tartibga solish maqsadga muvofiqdir.

Agar adabiyotlar manbalari bilan ishlash talaba tomonidan vijdonan amalga oshirilsa, u qaysi savollar bo'yicha qanday amaliy ma'lumotlar to'plash kerakligini va bu ma'lumotlarni qaysi yo'nalishda qayta ishlash va tahlil qilish kerakligini yaxshi biladi.

V. AMALIY MA'LUMOTLARNI YIG'ISH VA QAYTA ISHLASH

Amaliy ma'lumotlarni yig'ishda tadqiqot ob'ektining hisobotlaridan, ilmiy-amaliy anjumanlar materiallaridan, sotsiologik tadqiqotlardan foydalaniladi.

Bundan tashqari tanlangan mavzu bo'yicha mustaqil sotsiologik tadqiqotlar, kuzatishlar, so'roq o'tkazish va iqtisodiy hisoblash ham muhim ahamiyatga ega.

Turli ko'rsatkichlarning dinamikasini tahlil qilish uchun bir necha yillik kerakli ma'lumotlarni yig'ish talab qilinadi.

Yig'ilgan ma'lumotlarni alohida bo'limlar va paragraflar bo'yicha taqsimlash va shundan keyingina ularni har bir bo'lim va paragraf maqsadi va vazifalariga mos ravishda qayta ishlashga kirishish maqsadga muvofiqdir.

Mundarijada kurs ishining barcha qismlari, ya'ni kirish, bob yoki bo'limlar, paragraflar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar joylashgan sahifa raqamlari bilan birgalikda keltiriladi.

VI. KURS ISHIGA RAHBARLIK QILISH

Kurs ishiga umumiy metodik rahbarlik ilmiy rahbar tomonidan amalga oshiriladi.

Ilmiy rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Kurs ishi yozish bo'yicha vazifa berish;
- talabaga kurs ishi tuzilishi va rejasini ishlab chiqishda yordam berish;
- talabaga mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni, ma'lumotlarni tanlashda yordam berish;
- talaba bilan birgalikda tadqiqot ob'ekti va doirasini, ob'ekt faoliyatini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish metodlarini aniqlash.

Ilmiy rahbar talaba tashabbusini turli yo'llar bilan rivojlantirishga va mustaqil ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishga yordam beradi.

Ilmiy rahbarning kurs ishi yozish masalasi bo'yicha maslahatlar berishi ilmiy rahbar tomonidan belgilangan va kafedra tomonidan tasdiqlangan muddatlarda olib boriladi.

Ilmiy rahbar, unga taqdim qilingan kurs ishini tekshirib, o'z mulohazalarini bildiradi va ishni qaysi yo'nalishda o'zgartirish va to'ldirish kerakligi to'g'risida maslahat beradi.

Yozib tugatilgan kurs ishi belgilangan muddatda ilmiy rahbarga topshiriladi. Ilmiy rahbar kurs ishini tekshirib chiqadi va uni himoyaga ruxsat berish to'g'risida o'z fikrini bildiradi. Ilmiy rahbar kurs ishini belgilangan tartiblar bajarilmaganda qabul qilmasligi mumkin.

VII. KURS ISHI HIMOYASI

Kurs ishlari himoyasida ilmiy rahbar va yana kamida ixtisoslik kafedrasidan bir yoki ikki kishi ishtirok etadi.

Kurs ishi himoyasi tartibi. Talaba 10-15 daqiqa davomida himoyada ishtirok etayotganlarga kurs ishining maqsadi, vazifalari, mazmuni hamda o'z tavsiyalari va takliflari to'g'risida axborot beradi. Shundan so'ng talaba kurs ishi mavzusiga va u bilan bog'liq bo'lgan himoyada ishtirok etayotganlarning savollariga javob beradi.

Kurs ishi bahosi himoyada ishtirok etayotganlar va ilmiy rahbar tomonidan birgalikda talabalarning javoblari asosida belgilanadi.

VIII. TAVSIYA ETILAYOTGAN KURS ISHI MAVZULARI¹

«MAKROIQTISODIYOT» FANIDAN KURS ISHI MAVZULARINING RO'YXATI

1.

¹Ro'yxatda keltirilmagan, ammo dolzarb boshqa mavzular bo'yicha ham ilmiy rahbar bilan kelishib kurs ishlari yozilishi mumkin.

IX. ILOVALAR

Ilova-1

Titul varaqasi namunasi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
HUZURIDAGI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

**FIQH, IQTISOD VA TABIIY FANLAR FAKULTETI
«XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR» KAFEDRASI
“JAHON IQTISODIYOTI VA XALQARO IQTISODIY
MUNOSABATLAR” BAKALAVR YO'NALISHI**

«MAKROIQTISODIYOT» fanidan

KURS ISHI

MAVZU: Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash usullari

Bajardi: JI-XIM yo'nalishi

2 kurs talabasi Adilov B.S.

Ilmiy rahbar: o'q. A.A.Abdirashidov

Toshkent-2010

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish tartibi.

Kurs ishida adabiyotlar quyidagi tartibda keltirilish lozim:

- O`zbekiston Respublikasi qonunlari
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari
- O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari
- Ilmiy asarlar, Monografiyalar, risolalar (alfavit tartibda)
- Oynomalar va gazetalardagi ilmiy maqolalar
- Ixtisoslikka taalluqli dissertatsiya va avtoreferatlar
- Statistik ma'lumotlar va hisobotlar

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini keltirish borasida na'munalar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

I. O`zbekiston Respublikasi qonunlari

1. Ўзбекистон Республикасининг «Банклар ва банк фаолияти тўғрисида»ги қонуни 25.04.1996й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1996 й. 5-6-сон,
2. Ўзбекистон Республикасининг «Эркин иқтисодий зоналар тўғрисида»ги қонуни 25.04.1996й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1996 й. 5-6-сон,
3. Ўзбекистон Республикасининг «Чет эл инвестициялари тўғрисида»ги қонуни 30.04.1998й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1998 й. 5-6-сон,
4. Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини иш билан таъминлаш тўғрисида»ги (Янги таҳрири) қонуни 01.05.1998 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1998 й. 5-6-сон,
5. Ўзбекистон Республикасининг «Инвестиция фаолияти тўғрисида»ги қонуни 24.12.1998 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 1999 й. 1-сон,
6. Ўзбекистон Республикасининг «Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисида»ги (Янги таҳрири) қонуни 26.05.2000 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2000 й. 5-6-сон,
7. Ўзбекистон Республикасининг «Суғурта фаолияти тўғрисида»ги қонуни 05.04.2002й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2002 й. 4-5-сон,
8. Ўзбекистон Республикасининг «Муҳофаза чоралари, антидемпинг ва компенсация божлари тўғрисида»ги қонуни 11.12.2003 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2004 й. 1-2-сон,
9. Ўзбекистон Республикасининг «Валютани тартибга солиш тўғрисида»ги (янги таҳрири) қонуни 11.12.2003 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2004 й. 1-2-сон,
10. Ўзбекистон Республикасининг «Экспорт назорати тўғрисида»ги қонуни 26.08.2004 й. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси 2004 й. 9-сон,

II. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида ташқи савдо фаолиятини янада эркинлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони 26.09.2003 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Экспорт-импорт операцияларини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги фармони 11.03.2005 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Тўғридан-тўғри хусусий хорижий инвестицияларни жалб этишни рағбатлантириш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги фармони 11.04.2005 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ташқи иқтисодий ва савдо алоқалари, хориж инвестицияларни жалб этиш соҳасида бошқарув тизимини такомиллаштириш тўғрисида»ги фармони 21.07.2005 й.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Экспорт–импорт операцияларини тартибга солиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори 19.09.2005 й. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 40-сон

III. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ташқи савдо фаолиятини тартибга солишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори 2.02.2001 й.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Тўғридан-тўғри хорижий инвестицияларни ҳуқуқий ҳимоя қилишни кучайтиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори 2.05.2003 й.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси ҳудудига жисмоний шахслар томонидан товарлар олиб келинишини янада тартибга солиш тўғрисида»ги қарори 19.06.2003 й. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 12-сон.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикасининг нақд миллий валютасини олиб кириш ва олиб чиқишни тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори 25.02.2004 й. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами 8-сон

IV. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari

- 1.. Каримов И.А. Ўзбекистон-бозор муносабатларига ўтишнинг ўзига хос йўли. - Т.: «Ўзбекистон»,1992.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Т.: «Ўзбекистон»,1998.
3. Каримов И.А. Иқтисодиётни эркинлаштириш, ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш-бош йўлимиз.-Т.: «Ўзбекистон», 2002.

4. Каримов И.А. Мавжуд имконият ва ресурслардан оқилона фойдаланиш-таракқиёт омили. -Т.: «Ўзбекистон», 2004.
5. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг Олий Мажлис қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маърузаси. //Халқ сўзи, № 20, 29 январ 2005 й.,

V. Ilmiy asarlar, Monografiyalar, risolalar

1. Ишмухаммедов А., Суннатов М., Шибаршова Л. Жаҳон иқтисодиётига интеграция. Т.: 2004,-160 б.
2. Расулов М.Н. Бозор иқтисодиёти асослари. Т.: «Ўзбекистон» 1998-356.
3. Тўхлиев Н., Ҳақбердиев қ., Эрмаматов Ш., Холматов Н. Ўзбекистон иқтисодиёти асослари. Т.: «ЎЗМЭ», 2006.-396 б.
4. Тўхлиев Н., Бозорга ўтишнинг машаққатли йўли. –Т .: «Ўзбекистон», 1999. –240 б.
5. Шодиев Р.Ҳ., Махмудов Э.Р. Жаҳон иқтисодиёти. Т.: Ғ.Ғулом нашриёти, 2005-312 б.
6. Ҳамедов М.А. Алимов А.М. Ўзбекистон Республикасида ташқи иқтисодий фаолият асослари. –Т.: «Адабиёт жамғармаси» 2004.-328 б.
7. Ломакин В. К. Мировая экономика. М.: «ЮНИТИ» 2000.-727 с.
8. Колесова В.П. и др. Мировая экономика. Экономика зарубежных стран.-«Флинта» 2001. 436 с.
9. Красавиной Л. Н. Международные валютные-кредитные и финансовые отношения. «Финансы и статистика» 2001. 486 с.
10. Adam Smith, Wealth of Nation. A Selected Edition. Edited with an Introduction and Notes by Kathryn Sutherland. – Oxford University Press, 1776. 1998. –618 p.
11. Salvatore D. “International Economics”, Prentice-Hall, 2004.

VI. Ilmiy maqolalar

- 1.. Абдусаматов А. Миллий иқтисодиётда хорижий инвестициялар. Бозор, пул ва кредит, 2001 йил, 7-сон.
- 2.. Содиков З.Р. Ташқи иқтисодий фаолият ва унинг миллий иқтисодиётга ижобий таъсирлари. //Ўтиш иқтисодиёти шароитида Ўзбекистон иқтисодиёти ва ташқи иқтисодий алоқаларни эркинлаштириш хусусиятлари. Тезислар тўплами. Т., 21. 09. 2004 й. 18-20 б.
- 3.. Содиков З.Р. Мамлакатда иқтисодий ўсишнинг омиллари ва унда ташқи савдонинг тутган ўрни. //Ўзбекистоннинг иқтисодий салоҳияти: ҳозирги ҳолати

ва ундан фойдаланиш истикболлари. Тезислар тўплами. Т., 26.09.2006 й. 115-117 б.

VII. Dissertatsiya va avtoreferatlar

- 1.. Абдуллаев Р.В. «Ўзбекистон иқтисодиётини эркинлаштириш шароитида аграр секторнинг экспорт салоҳиятини юксалтириш (пахта толаси экспорти мисолида)». Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси учун диссертацияси автореферати. -Т., 2001 й.
- 2..Бердиназаров З.У. Валюта муносабатларининг ташқи иқтисодий алоқаларга таъсири ва уларни такомиллаштириш масалалари. Иқтисод фанлари номзоди илмий даражаси учун диссертация.-Т., 2005 й.
- 3.. Сиражиддинов Н. Теоретико-методологические аспекты повышения эффективности внешней торговли Узбекистана. Иқтисод фанлари доктори илмий даражаси учун диссертация.-Т., 2005 й.

VIII. Statistik to'plamlar

- 8.1 Ўзбекистон Республикаси Давлат Статистика қўмитасининг 2006 йиллардаги статистик тўплами.
- 8.2 Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт вазирлиги қошидаги Самарали иқтисодий сиёсат марказининг Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёти. Таҳлилий-статистик тўплам. 2005 йил.
- 8.3 World Development Indicators-2006 йилдаги статистик тўплам.

№	M U N D A R I J A	Bet
I	K I R I S H	3
II	KURS ISHINI YOZISHGA TAYYORGARLIK	4
2.1	Kurs ishi mavzusini tanlash	4
2.2	Kurs ishi tuzilishi	4
III	KURS ISHIGA BELGILANGAN ASOSIY TALABLAR	5
3.1	Kurs ishining mazmunini ochib berishga qaratilgan talablar	5
3.2	Kurs ishining alohida bandlariga qo`yiladigan talablar	6
3.3	Materiallarni yoritib berishga qo`yilgan talablar	7
3.4	Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish	8
IV	ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISH	9
V	AMALIY MA'LUMOTLARNI YIG`ISH VA QAYTA ISHLASH	10
VI	KURS ISHIGA RAHBARLIK QILISH	11
VII	KURS ISHI HIMOYASI	12
VIII	TAVSIYA ETILAYOTGAN KURS ISHI MAVZULARI	13
IX	ILOVALAR	18
1	Ilova 1 Titul varaqasi namunasi	18
2	Ilova 2 Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini tuzish tartibi.	19
3	Ilova 3 Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatini keltirish borasida na'munalar	20

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI
huzuridagi
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI

«XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR» kafedrası
ABDIRASHIDOV A.A.

OLIY TA'LIMNING «5341100-Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy
munosabatlar» bakalavr yo`nalishi uchun rejalashtirilgan
«MAKROIQTISODIYOT » fanidan

KURS ISHI

yo'zish bo'yicha metodik (uslubiy) ko'rsatma

Nashr uchun mas'ul:

Muharrir:

Muhassis:

Nashrga tayyorlangan materiallarning sifati, keltirilgan ma'lumotlar va boshqalarning aniqligi, shuningdek, ochiq nashr etishga ruxsat berilmagan ma'lumotlarni ommalashtirgani uchun tavsiyanomalar mualliflari javobgardir.

TIU ning rasmiy ruxsatisiz qayta chop etish mumkin emas.

Format 84x108 1/32. Hajmi 1,5 6.t.

Nusxa soni

700011, Toshkent sh., A. Qodiriy 11.

